

Tabiatga zarar yetkazmang, jarimasi "chaqadi"



Surxondaryo viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasiga Termiz shahridagi Guliston mahallasining yo'l chetidagi tut daraxti kesib ketilgani haqida murojaat kelib tushdi.

Tabiat qo'riqchilari Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi xodimlari bilan o'rganish olib borganida shu mahallada yashaydigan Adham Dollijev (ism-shariflar o'zgartirildi) qo'shnisi yo'l chetiga ekib qo'ygan va o'suvchanligini yo'qotmagan tut daraxtini kesib tashlagani aniqlandi.